



Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati

Jumanazarova Bahoroy Xursandbek qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch Davlat Universiteti

Ijtimoiy-Iqtisodiy fanlar fakulteti

Yurisprudensiya 251-guruh talabasi

Email: bahoroy984@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati tushunchalari keng yoritilib, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash shu bilan birga huquqiy davlatlar qanday bo'lishi yoritilgan. Shuningdek, huquqiy davlatning asosiy tamoyillari, fuqarolik jamiyatining ijtimoiy hayotdagi o'rni, demokratik qadriyatlar tizimida ularning o'zaro ta'siri va zamonaviy ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot davomida O'zbekiston tajribasi misolida huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining amalda qanday ro'yobga chiqayotgani ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, qonun ustuvorligi, inson huquqlari, demokratiya, islohotlar, Konstitutsiya, adolat, erkinlik.

KIRISH

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng davlatda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini yuksaltirish maqsadida ko'pgina islohotlar qilinmoqda. Masalan, Prezidentimiz Shavkat Mirmonovich Mirziyoyev tomonidan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 5 ta tashabbus strategiyasini e'lon qilgan. Bu narsa jamiyatdagi huquqiy ongni yuksaltirish va bolalarga ham kichkinaligidan boshlab huquq nimaligini tushuntirish maqsadida qilingan. Inson huquqiga oid bilimlarini faqatgina o'rganib emas, balki kelajakda ishlatish ham mumkin. Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi asosida ko'plab bajarilishi shart bo'lgan hujjatlar ishlab chiqilgan. Agarda biz birinchi o'ringa inson huquqlarini qo'ymasak biz huquqiy davlat barpo qila olmaymiz. Chunki biz shu narsalarni Konstitutsiyada ham belgilaganmiz. Masalan, jamiyatdagi fuqarolarni huquqiy bilimlari past bo'lsa, biz ularga huquqni o'rgatishimiz kerak. Agarda ular o'zlarini huquqlarini bilishmasa, biz fuqarolik jamiyatini rivojlantira olmaymiz.





ASOSIY QISM

Huquqiy davlat – huquqning ustuvorligi hamda sud mustaqilligi ta’minlanadigan, inson huquqlari va erkinliklari kafolatlanadigan, davlat hokimiyati vakolatlar bo‘linishi tamoyili asosida amalga oshiriladigan demokratik davlatdir. “Huquqiy davlat” tushunchasi ilk bor Yevropa falsafasida XVIII–XIX asrlarda shakllangan. Nemis olimlari Immanuel Kant, Gegel, Shteyn kabi mutafakkirlar huquqiy davlatni inson erkinligini huquq orqali himoya qiluvchi davlat sifatida izohlashgan. Davlatimiz Konstitutsiyasida ham O‘zbekistonning huquqiy davlat ekanligini bilish mumkin. Misol uchun, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXIII bobi 130-moddasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatdan, siyosiy partiyalardan, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan mustaqil holda ish yurititishi belgilangan. X bobd bo‘lsa “Inson hamda fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlari” deb nomlanadi. Unda insonning huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning oliy maqsadi etib belgilangani, har kim o‘z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli ekanligi, inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga va inson huquqlari madaniyatini yuksaltirishga ko‘maklashishi va boshqalar aytib o‘tilgan. Bundan tashqari, Konstitutsiyaning 11-moddasida davlat hokimiyatining tizimi – hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linish prinsipi qayd etilgan. O‘zbekistonda huquqiy davlat barpo etish yo‘lida 2017-yildan boshlab “Harakatlar strategiyasi”, 2022-yildan esa “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” asosida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, konstitutsiyaviy islohotlar orqali “Inson qadri uchun” tamoyili asosiy g‘oyaga aylandi, sud-huquq tizimi isloh qilindi, korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlari kuchaytirildi. Fuqarolik jamiyati — bu davlatdan nisbatan mustaqil, o‘zini-o‘zi boshqaruvchi ijtimoiy tuzilma bo‘lib, unda fuqarolar o‘z manfaatlarini erkin ifoda etadi va himoya qiladi. Bu jamiyatda inson faqat davlat siyosatining ob‘ekti emas, balki faol sub‘ektiga aylanadi. Fuqarolik jamiyati demokratik siyosiy tizimni shakllantirishning eng muhim shartidir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIII bobi ham fuqarolik jamiyati institutlari deb nomlanadi. Fuqarolik jamiyati erkin individ va markazlashgan davlat xohish-irodasi o‘rtasida bog‘lovchi bo‘g‘in hisoblansa, huquqiy davlatning vazifasi parchalanish, tartibsizlik, tanglikka qarshi ish ko‘rish, erkin shaxsning huquq va erkinliklarini





ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Inson huquqlarini fuqarolik jamiyati, fuqaro huquqlarini — davlat ta'minlaydi. Birinchi holatda inson sifatida shaxsning yashash, erkinlik huquqlari nazarda tutilsa, ikkinchi holatda uning siyosiy huquqlari nazarda tutiladi. Shu sababli, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat o'zaro bog'liqlikda faoliyat olib borishi kerak.

XULOSA

Mening fikrimcha, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati bir-birisiz mavjud bo'la olmaydi. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar aynan shu yo'nalishlarda ijobiy natijalar bermoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya, sud-huquq islohotlari, jamoatchilik nazorati, OAV erkinligi, nodavlat tashkilotlarning faollashuvi — bularning barchasi mamlakatimizda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati poydevori tobora mustahkamlanayotganini ko'rsatadi. Shunday ekan, har bir fuqaro o'zining huquqiy madaniyatini oshirib, fuqarolik mas'uliyatini anglab yashasa, O'zbekiston chin ma'noda huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyati sifatida yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tariladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
2. Sh.A. Saydullayev "Davlat va Huquq nazariyasi" 2024;
3. A.Shomurodov "Fuqarolik jamiyati"
4. A.Saidov "Davlat va huquq asoslari".

